

TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

TURKOLOGIYA TURKOLOGY

XALQARO ILMIY JURNAL

ISSN 2181-2101

2024

1-2

ISSN 2181 – 2100



TURKOLOGIYA TURKOLOGY



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
ILMIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES**

1 - 2

2024

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ro'yxatidan o'tgan
(№ 1129, 11.11.2020-y.) ISSN 2181 – 2101

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shovkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

TAHRIR HAY'ATI

Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
P. Kenjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib)</i>
B. To'xliyev	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Sodiqov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Usmanova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
H. Dadaboyev	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
N. Rahmonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
B. Karimov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Islamjanova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Hamidov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
A. Alimbekov	<i>filologiya fanlari nomzodi, professor</i>
Dj. Shabanov	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
Sh. Sodiqova	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
D. Sayfullayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
Z. Alimov	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
N. Xolmatov	<i>iqtisod fanlari nomzodi, dotsent</i>
Z. Qodirova	<i>iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>
M. Vohidova	<i>iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
O.Mert	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>
V.S.Yelok	<i>Turkiyaning Anqara Hoji Bayram Vali universiteti dotsenti</i>
N. Telitsin	<i>SPbDU Turkologiya kafedrasi mudiri, professor</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, G. Hushnazarova, H. Sulaymonova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

Adabiyotshunoslik

<i>Alimbekov A.</i> Hassos romannavis (Rashod Nuri Guntekin)	4
<i>Kenjayeva P.</i> Toriq Bug‘ro hikoyalarida psixologik tasvir ko‘rinishlari	12
<i>Azizova N.</i> XX asr boshlarida zamonaviy turk she‘riyatining shakllanish omillari.....	21
<i>Karimova Sh.</i> Farid Edgu hikoyalarida qahramon ruhiyatini aks ettirishning badiiy-psixologik tamoyillari.....	28
<i>Rajabov F.</i> Tasavvuf adabiyoti haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar	36
<i>Abdulxayeva D.</i> Selim Ileri hikoyalarida qahramon psixologiyasi talqini.....	44

Tilshunoslik

<i>Usmanova Sh.</i> Özbek türkçesi ve türkiye türkçesinde “nan/ ekmek” konsepti.....	52
<i>Allamberganova M.</i> Qadimgi turkiy rasmiy hujjatlarning uslubiy-semantik taraqqiyoti.....	70
<i>Aripov M.</i> Turkcha tilak, olqish va duolarning ijtimoiy-estetik funksiyalari.....	81
<i>Salimova Z.</i> Turk va o‘zbek tillarida gul nomlari vositasida inson obrazining ifodalanishi.....	90
<i>Annazarova T.</i> Paralingvistik vositalar tadqiqida turli maktab va yondoshuvlar.....	98

Tarjimashunoslik

<i>Hamidov X.</i> Aziz Nesin asarlaridagi maqol va iboralarning tarjimada berilishi masalasi	110
--	-----

Manbashunoslik

<i>Omonov Q.</i> Yozma manbalarda Turon davlatining quruvchisi Alp Er To‘nga shaxsiyati bilan bog‘liq ma‘lumotlar.....	122
--	-----

SELIM ILERI HIKOYALARIDA QAHRAMON PSIXOLOGIYASI TALQINI

Abdulxayeva Dilnoza
Magistrant, TDSHU

Annotatsiya. Mazkur maqolada sermahsul ijodkor, zamonaviy turk hikoyachiligining rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yozuvchi Selim Ilerining hikoyalarida qahramon psixologiyasi talqinini tadqiq etilgan. Maqolada yozuvchining "G'am-qayg'u qahvasi" ("Hüzün Kahvesi") nomli hikoyasi adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Selim Ilerining aksariyat hikoyalari qahramonlari atrofi to'la inson bo'lishiga qaramay yaqin bir do'sti, dardkashi, sirdoshi bo'lmagan, yolg'iz, hech kimi yo'q odamlardir. Adib hikoyalarida hayotning turli muammolari qarshisida yolg'izlanib, jamiyatga begonlashib qolgan qahramonlarning ruhiy holatini mohirlik bilan kitobxonga yetkazadi. Qahramonlarning ruhiyatini, qalb kechinmalarini psixologik tasvir, ichki monolog, ong oqimi, psixologik portret singari tasvir vositalari orqali badiiy aks ettiradi.

Selim Ileri hikoyalarida ham turk hikoyachiligi hamda g'arb hikoyachiligi izlarini ko'rish mumkin. Zero, adibning ijodiy faoliyatining shakllanishida bolaligida onasidan tinglagan hikoya va romanlari bilan bir qatorda, maktab va litsey yillarida o'qigan R.N.Guntekin, Y.Q.Qorausmono'g'li, H.E.Adivar, H.R.Gurpinar, H.Z.Ushoqligil, M.Rauf, R.H.Qaray, A.Sh.Hisar, A.H.Tanpinar, S.Ali, S.F.Abasiyoniq, U.Sayfiddin, O'.Kamol, A.Ilhan, B.Nejatigil, E.Jansever, P.Jalol, J.P.Sartr, A.Kamyu, T.Man, M.Prust, F.Kafka, L.Tolstoy, E.A.Po, O.Balzaklarning asarlari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, uning ba'zi hikoyalarida jahon adabiyotining mohir hikoyanavislari Anton Pavlovich Chexov, Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy, Uilyam Folkner, Virjiniya Vulf, Katerina Mansfeld asarlarining ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kalit so'zlar: Selim Ileri, turk hikoyachiligi, hikoya, qahramon, ruhiyat, ichki monolog, ong oqimi, psixologiya.

Özet. Bu makalede, modern Türk hikâyeciliğinin gelişimine önemli katkılarda bulunan üretken bir yazar Selim İleri'nin hikâyelerindeki kahraman psikolojisinin yorumlanması incelenmiştir. Makalede yazarın "Hüzün Kahvesi" adlı öyküsü edebiyat çalışmaları açısından incelenmektedir.

Selim İleri'nin hikâyelerindeki kahramanların çoğu, etrafı insanlarla dolu olmasına rağmen yakın arkadaşı, acılarını paylaşanı, dert yakınanı, sırdaşı olmayan yalnız insanlardır. Yazar, hikâyelerinde hayatın çeşitli sorunları karşısında yalnız kalan ve toplumdan yabancılaşan kahramanların ruh hallerini okuyucuya ustalıkla aktarmaktadır. Hikâyelerde yazar, iç çözümleme, iç monolog, bilinç akışı ve psikolojik portreler aracılığıyla karakterlerin ruh hallerini ve duygularını sanatsal bir şekilde yansıtmıştır.

Selim İleri'nin hikâyelerinde Türk hikâyeciliğinin ve Batı hikâyeciliğinin izlerini görmek mümkündür. Sonuçta yazarın edebi faaliyetinin ortaya çıkmasında çocukluğunda annesinden dinlediği öykü ve romanların yanı sıra R.N.Guntekin, Y.Q.Karaosmanoğlu, H.E.Adivar, H.R.Gurpinar, H.Z.Uşaklıgil, R.H.Karay, M.Rauf, A. Ş.Hisar, M. Proust, F. Kafka, L. Tolstoy, E. A. Poe, O. Balzac'ın eserleri büyük önem taşımıştır. Ayrıca bazı öykülerinde dünya edebiyatının usta öykü yazarları Anton Pavlovich Chekhov, Fyodor

Mihayloviç Dostoyevski, William Faulkner, Virginia Woolf, Katerina Mansfeldlarin eserlerinin etkisi açıqça görülmektedir.

Anahtar Kelimeler: Selim İleri, Türk hikayeciliği, öykü, kahraman, ruh, iç monolog, dialog, bilinç akımı, psikoloji.

Abstract. In this article, the interpretation of hero psychology in the stories of Selim İleri, a productive writer who made significant contributions to the development of modern Turkish storytelling, was examined. In the article, the author's story "Coffee of Sadness" ("Hüzün Kahvesi") is examined in terms of literary studies.

Most of the heroes in Selim İleri's stories are lonely people who have no close friends, no one to share their pain, no confidant, even though they are surrounded by people. In his stories, the author skillfully conveys to the reader the moods of the heroes who are left alone and alienated from society in the face of various problems of life. In the stories, the author artistically reflects the moods and feelings of the characters through internal analysis, internal monologue, stream of consciousness and psychological portraits.

It is possible to see traces of Turkish and Western storytelling in Selim İleri's stories. As a result, in addition to the stories and novels he listened to from his mother in his childhood, the author's literary activity emerged from the stories and novels of R.N.Güntekin, Y.Q.Karaosmanoğlu, H.E.Adivar, H.R.Gürpınar, H.Z.Uşaklıgil, R.H.Karay, M.Rauf, A.Ş.Hisar, M. Proust, F. Kafka, The works of L. Tolstoy, E. A. Poe, O. Balzac were of great importance. In addition, in some of his stories, the influence of the works of the master story writers of world literature Anton Pavlovich Chekhov, Fyodor Mikhailovich Dostoyevsky, William Faulkner, Virginia Woolf and Katerina Mansfeld is clearly visible.

Key words: Selim İleri, Turkish storytelling, story, hero, psyche, inner monologue, stream of consciousness, psychology.

Kirish. Badiiy asarda u qaysi turda yozilgan bo'lishidan qat'iy nazar, unda hayot so'z vositasida o'z badiiy ifodasini topadi. Bunda nafaqat voqea-hodisalar balki insonning ruhiy holati aks ettiriladi. D.Quronov ta'kidlaganidek: "Adabiyot hamisha inson ruhiyatida kechuvchi jarayonlarga qiziqqan, ularni turli yo'llar bilan ifodalashga intilgan."¹ Yozuvchi asarda inson psixologiyasini talqin qilish orqali kitobxonni inson qalbining chek-chegarasiz, bepoyon, ko'p qatlamli va sir-asrorga to'la his-tuyg'u olamiga olib kiradi. Har bir ijodkor unda kechayotgan insoniy ruhiy holatlarni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. "Adabiyotda tabiat ham, muhit, sharoit, predmetlar ham inson mohiyatini ochishga bo'ysundirilib, "insoniylik" xususiyati kasb etadi, asosan odam va uning kechinmalari hukmronlik qiladi. Shuning uchun ham adabiyotning tabiatiga xos bo'lgan "insonshunoslik" psixologizm tasvirisiz ish ko'ra olmaydi."²

Turk adabiyotida psixologik roman, hikoya va she'rlar muhim amahiyatga ega. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyotning barcha janrlarida

¹ Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – B.209.

² Умунов Х. Бадий психологизм ва хозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан нашриёти, 1983. – Б.6.

bo'lgani singari epik turning hajman kichik bo'lgan janri hikoyalarda ham inson psixologiyasi talqini keng o'rin ola boshladi. Xususan turk adabiyotiga ham g'arb modernizmi unsurlari kirib kela boshladi. Yozuvchilar shaxsning ichki olamiga, hissiy mojarolariga va psixologik vaziyatiga e'tibor qarata boshladilar. Adiblar o'z asarlarida ijtimoiy bosim va quyinchiliklarning inson ruhiyatiga ta'sirini badiiy aks ettirdilar. Inson qalbining tub-tubidagi yashirin sirlariga kirib borib turfa-xil xarakterdagi qahramonlar yaratdilar.

O'ziga xos badiiy mahorat egasi bo'lgan Selim Ileri zamonaviy turk hikoyachiligida shaxsning ruhiy holatini tasvirlash, uning qalb kechinmalarini o'quvchiga yetkazish, xilma-xil obrazlar yaratish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yozuvchi qalamiga mansub ko'plab asarlar kitobxonlar orasida o'z ixlosmandlariga ega bo'lib, u hikoyalarida inson psixologiyasida yuz berayotgan jarayonlarni, holatlarni ichki monolog, ong oqimi, psixologik portret, xatti-harakatlardagi ritmik o'zgarishlar, nutqiy xarakteristika, hislarning tashqi ekspressiyasi, gallyutsinatsiya, tush, va psixologik timsollar singari badiiy tasvir vositalari orqali hayotiy real bir tarzda ifodalaydi.

Turk adabiyotshunos olimi Nejip Tosun Selim Ileri ijodiga shunday ta'rif beradi: "Selim Ileri g'am-qayg'u, mag'lubiyat va ayriliqlar kuychisidir. U asarlarida shaxsning ichki olami sarguzashtlarini bayon qilar ekan, artof-muhit – jamiyat – tuzum kabi tashqi muhitdagi o'zgarishlarni, ularning shaxsga ta'sirini sinchkovlik bilan o'rganadi. Adibning hikoyalari so'ngida qahramonlar doimo yolg'izlik va azobu-uqubatga duchor bo'lishadi. Chunki bemehrlik qurshab olgan koinotda, insonlar o'rtasida o'zaro nazokat, zarofat va oliyjanoblik tuyg'ulari kundan-kunga kamayib bormoqda, tark etilmoqda."¹

Selim Ileri ijodi turli aspektlarda turk adabiyotshunoslari tomonidan o'rganilgan bo'lib, jumladan, M.L.Akyuz, O'.Butav, B.Qilich, N.Mengi, Sh.F.O'zkaya, Z.O'zxan, N.Chaqmaq, Y.Chopurlar yozuvchining romanlari ustida magistrlik va doktorlik tadqiqot ishlari olib borishgan. A.Harmanji tomonidan "Selim Ilerining adabiy shaxsiyati va hikoyachiligi", H.Akgo'g' tomonidan "Selim Ilerining hikoyalarida inson" va S.Sayin tomonidan "Selim Ileri hikoyalari va hikoyachiligi" mavzularida yozilgan ilmiy tadqiqot ishlarida adibning hikoyalari va ularning badiiy estetik xususiyatlari tadqiq qilingan. Shuningdek, o'zbekistonlik adabiyotshunos olimi P.Kenjayeve o'zining "XX asr turk hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari" nomli doktorlik dissertatsiyasida S.Ilerining ijodiga, xususan, adib hikoyalaridagi modernistik va postmodernistik unsurlarga qisman to'xtalib o'tgan. Ammo S.Ilerining hikoyalarida qahramon psixologiyasi talqini chuqur o'rganib chiqilmagan.

Maqsad va vazifa: Zamonaviy turk yozuvchisi Selim Ilerining hikoyalarida qahramon psixologiyasi talqini masalanisi tadqiq qilishdan iborat.

¹ Tosun N. Öykümüzün Kırk Kapısı. – Ankara: Hece Yayınları, 2013. – S. 325.

Yozuvchi hikoyalarida ruhiy talqin, tasvir va tahlil vositalarining ifodalanishi, badiiy ko‘lamdorlik, adibning qahramon ruhiyatini tasvirlashdagi mahoratini ochib berish, ilmiy asoslash va umumiy xulosalar chiqarish maqola oldiga qo‘yilgan vazifalar hisoblanadi.

Usullar: S.Ileri hikoyalarini tahlil qilishda adabiy-estetik va psixologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza: Selim Ilerining ko‘plab hikoyalarida psixologik unsurlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi o‘z qahramonlarining ichki ruhiy holatini, qalb kechinmalarini, his-tuyg‘ularini ular yashab turgan jamiyat, murakkab hayot va voqealar rivojida kitobxonga yetkazishga urinadi. Selim Ilerining aksariyat hikoyalari qahramonlari hayotda o‘z o‘rnini topishga urinayotgan, shaxslararo munosabatlarda muvaffaqiyatsizliklarga duchor bo‘lgan, oilasidan, do‘stlaridan, umr yo‘ldoshidan biroz e‘tibor, biroz mehr kutgan yolg‘iz insonlar bo‘lib, ezilgan, mungli xarakterga ega obrazlar sanaladi.

Adibning “G‘am-qayg‘u qahvasi” (“Hüzün Kahvesi”) nomli hikoyasi 1968-yilda yozilgan bo‘lib, ushbu hikoya uning bir necha hikoya to‘plamlaridan joy olgan. Yozuvchi qahramonga ism bermagan, uni mavhumligicha qoldirgan.

Hikoya bosh qahramoni bolalik yillarida uy egasi tomonidan jinsiy zo‘ravonlikka uchraydi, uy egasi bolaga buni hech kimga aytmalikka qasam ichiradi. Boshdan o‘tkazgan bunday fojeali, qo‘rqinchli, jirkanch hodisa tufayli qahramon o‘z ichki qobig‘iga o‘ralib qoladi. Chidab bo‘lmas darajada g‘am-qayg‘u va iztiroblar girdobiga g‘arq bo‘ladi. Buning natijasida qahramon hamma narsadan, hayotdan, xattoki, o‘z ota-onasidan, oilasidan ham jirkana boshlaydi. O‘z oilasida o‘zini begona his qiladi.

“U hamma uyquga ketgach yashirin yig‘lardi. Bu yerda tunlar tuganmasdi. Bu yerda insonlar zulmdan boshqa hech bir narsa his qilmasdi.”

(“Herkes uyuyunca, gizli gizli ağlardı da. Geceler bitmek bilmezdi burada. Burada insanlar ezinçten başka bir şey duymazlardı.”)¹

U qayerga bormasin atrofdagi insonlar uning ustidan kulayotganday, uni qo‘llarini bigiz qilib ko‘rsatayotganday bo‘laverardi. Huddi uning hayotida sodir bo‘lgan voqea hammaga ayonday tuyular, qahramonni ruhiy qiynoqqa solardi. Yozuvchi qahramonning qahvaxonaga borgandagi psixologik holatini shunday tasvirlaydi:

“O‘sha payt chidab turolmasdi; u qo‘lida kulgili sumkasi, rangpar to‘q ko‘k plashiga o‘ranib olgan, qo‘rqoq nigohlari qora oynali ochkisining ortiga yashiringan, bo‘yni egik bir alpozda ichkari kirardi. Chordoqning ostiga, eshik yoniga terib qo‘yilgan stullardan biriga o‘tirardi, kimdir tanib qolishidan, yoniga kelib gap qotishidan yuragi yorilay derdi. Yuragi qinidan chiqadiganday gursillab urardi.”

¹ İleri S. Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – S. 12.

(“O zaman dayanamaz; elinde gülünç çantası, soluk lacivert yağmurluğuna bürünmüş, korkak bakışları kara camlı gözlükleri gerisine saklanmış, boynubükük girerdi içeriye. Çardağın altına, eşiğe dizilmiş sandalyelerden birine çökerdi, birisi tanıyacak, yamacına gelip söyleyecek diye ödü kopardı. Deli deli çarpardı yüreği.”)¹

Yuqorida ko‘rganimiz misollarda yozuvchi psixologik tahlil orqali qahramon ruhiyatini ochib beradi. Rus adabiyotshunos olimi N.Chernishevskiyga ko‘ra psixologik tahlil xilma-xil bo‘ladi va unda bir muallif xarakter qirralarini ochib berishga urinsa, boshqasi – xarakter shakllanishiga jamiyat va turmush ta’sirini ko‘rsatib beradi; uchinchi – xatti-harakatlarning his-tuyg‘ular bilan aloqadorligini; to‘rtinchi – ehtiroslar tahlilini tasvirlaydi.²

Qahramonning yagona do‘sti bor bo‘lib, u faqat do‘sti bilan o‘tkazgan damlardagina o‘zini baxtiyor his qilardi. Qahramonning bu psixologik holatini esa adib ichki monolog orqali ifodalaydi:

“Sen borligingda men baxtiyor edim, biroz yuzim kulardi. Ularning masxaralari qilishlari, hamma-hammasi ahamiyatsiz men uchun. Sen mehribon eding, birgina yaqinim eding.”

(“Sen varken ben mutluydum, daha güleçti yüzüm. Onların alayları umurumda değildi, hiçti her şey benim için. Sen sevecendin, bir yakındın.”)³

Bir kuni qahramon boshdan kechirganlarini do‘stiga aytib beradi. Voqeadan xabardor bo‘lgan do‘sti esa uni tark etadi. Oqibatda qahramon ruhiy azoblar ichra yolg‘izlanib qoladi. Selim Ileri yolg‘iz qolgan qahramonning ichki olamini o‘z-o‘zi bilan suhbat ya’ni ichki monolog orqali tasvirlaydi. Badiiy psixologizmning bevosita shakli hisoblangan ichki monolog hikoyada qahramonning qalb kechinmalarini, his-tuyg‘u va tushunchalarini imkon qadar haqiqatga monand tasvirlashga imkon beradi. “Ichki monolog personaj ongida yozuvchi aralashuviz kechayotgan jarayon tasviri sifatida berilib, ong va ong osti qatamlari faoliyatini butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan tasvirlashga harakat kuzatiladi.”⁴

“Har doim qalbmni qurshab olib, azoblarimning tuzalishiga imkon bermagan narsa o‘sha qo‘rquv edi. Kinoteatrlarda shuning uchun shunday majolsiz, shunday g‘alati tutardim qo‘llaringdan. Boshqalar so‘liq qo‘llarimga boqib yoqimsiz kulishardi. Qizarardi yuzim, qo‘rqib qo‘llarimni tortib olardim. Sen ham

¹ İleri S. Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – S. 11.

² http://az.lib.ru/c/chernyshevskij_n_g/text_0240.shtml (Н. Г. Чернышевский. Собрание сочинений в пяти томах. Том 3. Литературная критика. Библиотека "Огонек". М.: "Правда", 1974).

³ İleri S. Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – S. 12.

⁴ Куронов Д. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 126.

kulasan deb o'ylardim. Balki jahling chiqar. Qo'llarim qo'llaringni tutarkan shunday yaxshi, hush va chiroyli edi."

("Hep o korkuydu içimi bürüyen, iç sızılarımı iyileştirmeyen. Sinemalarda onun için öyle güçsüz, öyle garip tutardım ellerini. Öbür insanlar bir çirkin gülerlerdi ellerine sarılmış ölgün ellerime bakıp. Kızarırdı yüzüm, korkuyla çekerdim. Sen de güleceksin sanırdım. Kızacaksın belki. Ellerim ellerinde böyle iyi idi, hoştu, güzeldi.")¹

Selim Ilerining xarakter ruhiy holatini tasvirlashdagi mahorati haqida Nejip Tosun shunday fikr bildiradi: "Turk hikoyachiligida o'z hikoyalarida ong oqimi texnikasidan eng yaxshi foydalana olgan yozuvchilarning boshida Selim Ileri turadi. Yozuvchining hikoyada mos atmosferani yaratishda va psixologik tahlillarda deyarli kamchiligi yo'qdir."² Mazkur hikoyada ham yozuvchi ong oqimidan ustalik bilan foydalanganligini guvohi bo'lamiz:

"Ishdan chiqiboq sen tomon choparardim, go'yo tepalikdan osonlikcha bir sakrashda tushardim. Mening sevgimni hech kim anglay olmasdi, Sait Foiq his qilsa yozardi. Uni senga o'qib berardim, ro'paraga qarab tinglarding. Darslaring qiyin edi, ba'zan shikoyat qilarding. "Parvo qilma" derdim, "o'qimasdan skameykalarda sarson-sargardon bo'lasanmi?" derdim. Har yakshanba kinoga borardik, kassaga egilib "bitta talabalar nikidan, bitta kattalar nikidan" derding. Sen gapirganingda eng oddiy so'zlar ham she'rga aylanardi, ishon qalbidam Sait Foiq ham jim qolardi."

("İşten çıkınca sana koşardım, bir çırpıda, sanki bir adımda inerdim yokuşu. Kimseler anlayamazdı sevgimi, Sait Faik duyar yazardı. Onu okurdum sana, dinlerdin karşılara bakıp. Derslerin ağırdı, dert yanardın bazan. "Aldırma" derdim, "okumayıp bankada mı sürüneceksin?" derdim. Her pazartesi sinemaya giderdik, gişeye eğilir "bir şebeke, bir tam" derdin. Sen konuşurken en yalın sözler bile şiirleşirdi, inan yüreğimde Sait Faik bile susardı.")³

"Ong oqimida biz bilgan tashqi olam haqiqati hisoblangan zamon va makon tushunchalari mazmunini yo'qotadi. Boshqacha qilib aytganda, o'tmish – hozir – kelajak vaqt birliklari o'rtasida mantiqsiz o'tishlar, makonlararo masofalarni hisobga olmagan holda borish kelishlar bo'lishi mumkin. Jamiyatda aytish mumkin bo'lmagan, uyat, gunoh yoki ta'qiqlangan deb hisoblanuvchi har qanday fikr, ongning eng qorong'u burchaklarida yashirin barcha narsa qanday bo'lsa shundayligicha aks ettiriladi."⁴

Hikoya roviy tomonidan bayon qilinadi. Biroq bosh qahramonning his-tuyg'ulari, iztiroblari, muammolari, ichki olami ong oqimi, ichki monolog va psixologik

¹ İleri S. Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – S. 13.

² Tosun N. Öykümüzün Kırk Kapısı. – Ankara: Hece Yayınları, 2013. – S. 333.

³ İleri S. Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – S. 12.

⁴ Çetin N. Roman Çözümleme Yöntemi. (14. Baskı). – Ankara: Akçağ Yayınları, 2015. – S. 183.

tahlil usullari orqali badiiy aks ettiriladi. Hikoyada foydalanilgan badiiy tasvir vositalari asar mazmunini ochishga, mohiyatini anglashga, badiiy ko‘lamdorligini oshirishga xizmat qiladi. Qahramonning qalbida jo‘sh urayotgan tug‘yon, fikrlar to‘qnashuvi, kechinmalar, voqealar rivoji o‘z-o‘zini tahlil qilishga olib keladi va buning asl sababini yechib beradi.

Shuningdek, hikoyada voqealar ketma-ketligi bir boshdan anglatilmaydi aksincha qahramonning qalb kechinmalari, ruhiy holati va bolalik yillarida boshdan kechirganlari, do‘sti bilan o‘tkazgan damlari qorishiq tarzda beriladi. Bu esa kitobxonda hikoya mohiyatini anglashga biroz qiyinchilik tug‘diradi. Ya‘ni kitobxon hikoyani bir bor o‘qishdayoq osonlikcha tushunib ololmaydi uni sinchkovlik bilan o‘qish talab qiladi. “S.İleri hikoyalaridagi syujet chiziqlari abstract strukturaga ega. Shu sababli asarlarning asl ma‘nosini anglash qiyin kechadi. Obrazlar xarakteri esa aksariyat hollarda ichki monolog va ong oqimi orqali ochib beriladi. Bu jihatdan S.İleri U.Folkner ijodiga yaqin keladi.”¹

Hikoya davomida qahramon tez-tez qahvaxonaga boradi va u yerda o‘zini boshqalardan begona his qiladi. Go‘yo u qahvaxonada choy, qahva o‘rniga g‘am-alam ichganday bo‘ladi. Bu jarayondan esa kitobxon asar nega bunday nomlanganligini ilg‘ab oladi:

“Anchadan beri odamlarga va urf-odatlarga e‘tibor bermasdan, qo‘rqusiz, boshim baland kirib kelaman bu qahvaxonaga. Endi men choy ichmayman, piyolalardan g‘am-qayg‘u ho‘playman. Tomog‘imdan qayg‘u oqadi, yuragim sanchadi.”

*(“Nicedir korkmadan giriyorum bu kahveye insanlara ve törelere aldirmadan; başım dimdik. Çay içmiyorum artık, bardak bardak hüznün yüdümlüyorum. Boğazımdan akıp gidiyor hüznün, sancıyor yüreğim.”)*²

Selim Ilerining ushbu hikoyasida qahramonning yolg‘izligi hukmronlik qiladi. Bu haqida S.Sayin shunday deydi: “Yozuvchi juda ham sevuvchi “siniq zarifliklarning shoiri Behchat Nejatigil”dan keltirgan ikki misra : “So‘ng bizning dahshatli yolg‘izligimiz yanada kattalashadi.” Go‘yo butun hikoya ichida aylanib yuradi. Hikoyaning ma‘no qatlamini boyitadi.”³

Xulosa. Selim Ilerining “G‘am-qayg‘u qahvasi” (“Hüzün Kahvesi”) nomli hikoyasini tahlil qilish orqali xulosa qilib aytishimiz mumkinki, adib mazkur hikoyada qahramon ichki dunyosini batafsil yoritishda psixologik tahlil, ichki monolog, ong oqimi singari badiiy tasvir vositalaridan foydalangan. O‘tmishdagi jarohatlar va ularning qahramon hozirgi hayotiga ta’siri o‘ylar oqimi bilan bayon qilinar ekan, xotiralar va hozirgi voqealar qahramonning ruhiy potretini chizishda

¹ Кенжаева П. XX аср турк ҳикоячилигининг тараққиёт тамойиллари. Ф. ф. д., дисс. – Т: 2017. – Б. 240.

² İleri S. Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – S. 18.

³ Sayın S. Selim İleri’nin Hikayeleri ve Hikayeciliği. Yüksek Lisans tezi. Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Edirne, 2006 – S. 51.

bir-biriga bog'lanadi. Qahramonning ruhiy tebranishlari syujet orqali emas, balki fikrlar oqimi orqali bayon qilinadi. Go'yoki o'quvchi qahramon ongida sayoxatga chiqqanday bo'ladi. Bu bilan esa yozuvchi qahramonning ruhiy jarayonlarini, murakkab his-tuyg'ularini, xayolidan o'tkazayotgan fikr va tushunchalar oqimini kitobxonga to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berishga erishadi. Bu esa o'z navbatida kitobxon va qahramon o'rtasida yaqinlik, uni his qilish, uning dardlarini tushunish imkonini beradi. Yuqorida ko'rib chiqilgan misollar Selim Ilerining hikoyalarda qahramon psixologiyasi talqinidagi muvaffaqiyatining belgisi hisoblanadi. Shuningdek, adib hikoya olamining o'ziga xos jihati sanaladi.

Selim Ileri turk hikoyachiligini o'ziga xos uslubdagi hikoyalari bilan boyitib uni rivojlantirishga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Yozuvchi murakkab umr so'qmoqlaridagi turk xalqining, insonlarining hayotini, ularning hayot qiyinchiliklariga bo'lgan munosabatini yangi talqinda, g'abr modernistik uslublarida ifodalashning uddasidan chiqadi. Uning ijodi turk adabiyotining badiiy-estetik tamoyillarini boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. İleri S. Otuz Yılım Bütün Hikayeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – 766 s.
2. Кенжаева П. XX аср турк ҳикоячилигининг тараққиёт тамойиллари. Ф. ф. д., дисс. – Т: 2017. – 271 б.
3. Қуронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 402 б.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
5. Sayın S. Selim İleri'nin Hikayeleri ve Hikayeciliği. Yüksek Lisans tezi. Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Edirne, 2006 – 225 s.
6. Tosun N. Öykümüzün Kırk Kapısı. – Ankara: Nece Yayınları, 2013. – 352 s.
7. Умуров Ҳ. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан нашриёти, 1983. – 147 б.
8. Çetin N. Roman Çözümleme Yöntemi. (14. Baskı). – Ankara: Akçağ Yayınları, 2015. – 304 s.
9. http://az.lib.ru/c/chernyshevskij_n_g/text_0240.shtml (Н. Г. Чернышевский. Собрание сочинений в пяти томах. Том 3. Литературная критика. Библиотека “Огонек”. М.: “Правда”, 1974).